IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 02 IYUL 2026

NEMIS MEDIA DISKURSIDA TIBBIYOT SOHASIGA OID EVFEMIZMLARNING SEMANTIK VA PRAGMATIK XUSUSIYATLARI

Nurqulov Javlon Rashid o'g'li
O'zDJTU Nemis tili nazariy fanlar kafedrasi stajor-o'qituvchisi
javlon.nurkulov0505@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21192186

ABSTRACT

This article presents a semantic and pragmatic analysis of medical euphemisms in German media discourse. The study examines euphemistic expressions used in newspaper and magazine texts and identifies their semantic and pragmatic characteristics. Special attention is paid to the role of euphemisms in mitigating the negative connotations associated with diseases, medical procedures, and health-related issues, as well as their influence on readers' perception.

Keywords: euphemism, medical euphemisms, media discourse, semantics, pragmatics.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis media diskursida qo'llaniladigan tibbiy evfemizmlarning semantik va pragmatik tahlili amalga oshirilgan. Gazeta va jurnal materiallari asosida tibbiyot sohasiga oid evfemik birliklarning ma'no xususiyatlari hamda ularning kommunikativ-pragmatik funksiyalari o'rganilgan. Kasalliklar, tibbiy muolajalar va inson salomatligi bilan bog'liq tushunchalarni yumshatib ifodalashda evfemizmlarning tutgan o'rni hamda ularning adresatga ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: evfemizm, tibbiy evfemizmlar, media diskurs, semantika, pragmatika.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится семантический и прагматический анализ медицинских эвфемизмов в немецком медиадискурсе. На материале газетных и журнальных текстов рассматриваются семантические особенности эвфемистических единиц медицинской сферы, а также их коммуникативно-прагматические функции. Особое внимание уделяется роли эвфемизмов в смягчении значений, связанных с заболеваниями, медицинскими процедурами и вопросами здоровья человека, а также их воздействию на восприятие адресата.

Ключевые слова: эвфемизм, медицинские эвфемизмы, медиадискурс, семантика, прагматика.

Salomatlik va u bilan bog'liq hodisalarni ifodalovchi evfemizmlar soni so'nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda. Bunga ta'sir etuvchi omillardan biri pandemiya davrida jamoatchilik orasida vahima va ijtimoiy taranglikning kuchayishiga yo'l qo'ymaslik zarurati bilan bog'liqdir. Shu bilan birga, tibbiy diskursda evfemik birliklardan foydalanish bemorlarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tushunchalarni yumshatib ifodalashga xizmat qiladi. Natijada kasallik, davolanish jarayoni yoki salomatlik bilan bog'liq noxush holatlar nisbatan neytral va kommunikativ jihatdan maqbul shaklda ifodalanadi. Shu sababli tibbiyot va media diskursda evfemizmlar nafaqat semantik, balki muhim pragmatik funksiyalarni ham bajaradi.

"Das Karlsruher Gericht hatte zuvor auch mit Verweis auf die Behindertenrechtskonvention entschieden, der Bundestag müsse "unverzüglich" Vorkehrungen zum Schutz von Menschen mit Behinderungen im Fall einer Triage treffen – also, wenn Ärzte

entscheiden müssen, wen sie angesichts knapper Ressourcen retten und wen nicht. Bei der Umsetzung habe der Gesetzgeber Spielräume [1]*".*

Yuqorida keltirilgan maqolada qo‘llangan *Triage* leksemasi tibbiy diskursda o‘ziga xos evfemik xususiyat kasb etadi. Aslida ushbu atama favqulodda vaziyatlarda yoki tibbiy resurslar cheklangan sharoitlarda bemorlarni ularning ahvoli va davolash imkoniyatlariga qarab saralash jarayonini anglatadi. Biroq mazkur birlikning semantik mazmunida shifokorlarning qaysi bemorga birinchi navbatda tibbiy yordam ko‘rsatish yoki hayotini saqlab qolish imkoniyatlarini belgilashi kabi murakkab va emotsional jihatdan og‘ir qarorlar mujassamdir. Shu sababli *Triage* leksemasi bunday noxush holatlarni bevosita ifodalash o‘rniga, ularni terminologik va nisbatan neytral shaklda ifodalovchi evfemik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

2019-yil oxirida yuzaga kelgan va qisqa vaqt ichida global miqyosda tarqalgan COVID-19 pandemiyasi nafaqat ijtimoiy va iqtisodiy hayotga, balki til tizimiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Pandemiya bilan bog‘liq yangi voqeliklarni ifodalash ehtiyoji natijasida ko‘plab yangi leksemalar va terminlar yuzaga keldi, ayrim mavjud birliklar esa qo‘shimcha ma’no yuklamalariga ega bo‘ldi. Ushbu jarayonda salbiy mazmunli hodisalarni yumshatib ifodalashga xizmat qiluvchi qator evfemik birliklar ham shakllandi. Tibbiy va media diskursda faol qo‘llanilgan bunday evfemizmlar pandemiya bilan bog‘liq xavf, kasallik va cheklovlarni nisbatan neytralroq shaklda ifodalash hamda jamoatchilikka yetkazish vazifasini bajardi.

"Auch 30 Jahre nach Öffnung der ungarischen Grenze muss der Kontinent immer wieder entscheiden, welchen Weg er gehen will [2]*".*

Tahlil qilinayotgan maqolada *Öffnung* leksemasi evfemik ma’noda qo‘llanilgan bo‘lib, u pandemiya davrida joriy etilgan cheklovlarning bosqichma-bosqich bekor qilinishi va ijtimoiy hayotning odatiy tartibga qaytishini anglatadi. Mazkur birlikning lug‘aviy ma’nosi “ochilish” yoki “ochiqlik” bo‘lsa-da, media diskursda u karantin choralarining yumshatilishi, iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning qayta tiklanishi hamda transport va kommunikatsiya aloqalarining bosqichma-bosqich tiklanishi kabi jarayonlarni ifodalash uchun qo‘llaniladi.

Semantik jihatdan *Öffnung* leksemasi pandemiya davriga xos bo‘lgan qat’iy cheklovlar, taqiqlar va izolyatsiya choralarini bevosita tilga olmasdan, ularning bekor qilinishi bilan bog‘liq ijobiy o‘zgarishlarni oldingi planga chiqaradi. Shu sababli mazkur birlik adresatda optimistik kayfiyat uyg‘otish va pandemiya oqibatlari bilan bog‘liq salbiy assotsiatsiyalarni kamaytirishga xizmat qiladi. Pragmatik nuqtayi nazardan esa *Öffnung* leksemasi jamoatchilikka ijtimoiy va iqtisodiy hayotning normallashuvi haqidagi xabarni nisbatan ijobiy va maqbul shaklda yetkazuvchi evfemik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

"Bei Urlaubsangeboten mit "Corona-Reiseschutz" empfiehlt sich ein genauer Blick in die Vertragsinhalte. Manche Corona-Reiseversicherung wirbt zwar mit Versprechungen wie "perfekte Sicherheit", doch Verbraucher können bei einer Stornierung ihrer Reise trotzdem leer ausgehen. Darauf weist das Europäische Verbraucherzentrum Deutschland (EVZ) hin [3]*".*

Tahlil qilinayotgan matnda qo‘llangan *Reiseschutz* leksemasi pandemiya davrida sayohatlar bilan bog‘liq xavf va cheklovlarni bilvosita ifodalovchi birlik sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur qo‘shma so‘z tarkibidagi *Schutz* (himoya) komponenti kommunikativ markazga chiqarilib, sayohatlar davomida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan epidemiologik xavf-xatarlar bevosita tilga olinmaydi. Natijada e’tibor mavjud tahdidning o‘ziga emas, balki undan himoyalanish choralariga qaratiladi.

Semantik nuqtayi nazardan, *Reiseschutz* leksemasining qo‘llanilishi sayohatlar bilan bog‘liq salbiy omillarni yumshatib ifodalashga xizmat qiladi. Chunki “himoya” tushunchasi adresatda xavfsizlik, ehtiyotkorlik va ishonch kabi ijobiy assotsiatsiyalarni uyg‘otadi. Aslida esa bunday himoya choralarining mavjudligi muayyan xavf yoki tahdidning mavjudligini ham nazarda tutadi. Pandemiya sharoitida mazkur birlik koronavirus infeksiyasining tarqalish xavfi hamda undan saqlanishga qaratilgan qoidalar va profilaktik choralarni anglatadi.

Pragmatik jihatdan *Reiseschutz* leksemasi sayohatlar bilan bog‘liq epidemiologik xavflarni bevosita ta’kidlash o‘rniga, ularni yumshoqroq va ijobiyroq shaklda ifodalash orqali adresatning salbiy reaksiyasini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu sababli ushbu birlik media diskursda pandemiya bilan bog‘liq noxush vaziyatlarni neytrallashtirish va kommunikativ ta’sirni yumshatish vazifasini bajaruvchi evfemik vosita sifatida baholanishi mumkin.

Pandemiya davri media diskursida ayrim leksemalar yangi semantik va pragmatik mazmun kasb etganligi kuzatiladi. Shunday birliklardan biri *Sonderurlaub* leksemasidir. Harbiy sohada ushbu birlik ayrim hollarda hazilomuz tarzda qamoq yoki xizmat faoliyatidan majburiy chetlatilish holatlarini ifodalash uchun qo‘llanilgan bo‘lsa, pandemiya davrida uning ma’nosi yangi kommunikativ vaziyat ta’sirida kengaygan.

“Mit Sonderurlaub das Virus besiegen[4]” jumlasida *Sonderurlaub* leksemasi uyda qolish, ijtimoiy aloqalarni cheklash va karantin qoidalariga rioya qilish ma’nolarini anglatadi. Bunda pandemiya davrida joriy etilgan cheklovlar bevosita taqiq yoki majburiyat sifatida emas, balki vaqtinchalik imtiyoz yoki alohida ta’til ko‘rinishida ifodalanmoqda. Natijada mazkur birlik cheklovlarning salbiy jihatlarini yumshatib, ularni nisbatan ijobiyroq nuqtayi nazardan talqin qilish imkonini beradi.

Semantik jihatdan leksemaning avvalgi va yangi ma’nolari o‘rtasida umumiy komponent sifatida harakat erkinligining cheklanishi mavjud. Biroq birinchi holatda cheklanish intizomiy yoki huquqiy sabablarga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi holatda u jamoat salomatligini saqlash va virus tarqalishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi. Shu sababli *Sonderurlaub* leksemasining pandemiya diskursidagi qo‘llanilishi cheklov va majburiyatlarni yumshatib ifodalashga xizmat qiluvchi evfemik vosita sifatida baholanishi mumkin.

“Mit dem Gesetz sollen vor allem ältere Verbraucher vor unlauteren Geschäftspraktiken geschützt werden. Zukünftig dürfen deswegen keine Finanzdienstleistungen und Nahrungsergänzungsmittel auf Kaffeefahrten verkauft werden [5]*”.*

Tahlil qilinayotgan matnda qo‘llangan *Nahrungsergänzungsmittel* leksemasi tibbiyot va salomatlik diskursida keng uchraydigan evfemik birliklardan biri hisoblanadi. Mazkur qo‘shma so‘z lug‘aviy jihatdan “ovqatlanishni to‘ldiruvchi vosita” ma’nosini anglatib, mahsulotning ijobiy va foydali jihatlarini oldingi planga chiqaradi. Natijada preparatlarning tarkibi, ehtimoliy nojo‘ya ta’sirlari yoki sog‘liq uchun yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavflar ikkinchi planga suriladi. Shu tariqa mazkur nominatsiya dori vositalari yoki biologik faol qo‘shimchalar bilan bog‘liq salbiy assotsiatsiyalarni yumshatishga xizmat qiladi.

Semantik jihatdan *Nahrungsergänzungsmittel* leksemasi iste’molchida sog‘lom ovqatlanish, organizmni qo‘llab-quvvatlash va foydali qo‘shimcha manbalar haqidagi tasavvurlarni shakllantiradi. Biroq ayrim hollarda bunday mahsulotlar vazn kamaytirish, organizm faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish yoki boshqa maqsadlarda qo‘llanilishi mumkin. Shuning uchun mazkur birlikning qo‘llanilishi mahsulotning potensial salbiy jihatlarini bevosita ta’kidlashdan ko‘ra, uning ijobiy funksional xususiyatlarini namoyish etishga qaratilgan.

Tahlil qilingan materiallarda inson salomatligi bilan bog‘liq masalalar ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan, tamaki va tamaki mahsulotlarining sog‘liqqa salbiy ta’siri hamda atrof-muhitni ifloslantirishi bilan bog‘liq muammolar media diskursda muntazam yoritib boriladi. Jumladan, Parijdagi ayrim jamoat bog‘larida chekishning taqiqlanishi haqidagi ma’lumotlar jamoat salomatligini muhofaza qilish va ekologik muhitni yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarning muhimligini ko‘rsatadi. Bu esa media matnlarida inson salomatligi va ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilayotganligini tasdiqlaydi.

“Kein blauer Dunst für grüne Lungen: In Paris ist das Rauchen in sechs Parks in den kommenden Monaten untersagt [6]*”.*

Tahlil qilinayotgan maqolada ikkita evfemik birlik qo‘llanilgan bo‘lib, ular inson salomatligi va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalarini bilvosita ifodalashga xizmat qiladi.

Shulardan biri *blauer Dunst* (ko‘k tuman) birikmasidir. Mazkur evfemizm sigaret tutunini ifodalash uchun qo‘llanilib, tamaki mahsulotlarining salbiy ta’sirini bevosita tilga olish o‘rniga, uni metaforik va yumshatilgan shaklda tasvirlaydi. “Tuman” komponentining qo‘llanilishi sigaret tutunining keng tarqalishi va uning atrof-muhitga ta’sirini obrazli tarzda aks ettiradi. Natijada chekishning inson salomatligi va ekologik muhit uchun zararli oqibatlari bilvosita ifodalanib, o‘quvchining e’tibori ushbu muammoga qaratiladi.

Maqolada uchraydigan ikkinchi evfemik birlik *grüne Lungen* (yashil o‘pkalar) hisoblanadi. Ushbu birikma shahar bog‘lari, istirohat maskanlari va boshqa yashil hududlarni ifodalash uchun qo‘llanilgan. Semantik jihatdan “o‘pka” komponenti inson organizmining nafas olish tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, yashil hududlarning ham atrof-muhitni tozalash va ekologik muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Shu tariqa bog‘ va istirohat maskanlari shahar hayotining “o‘pkasi” sifatida talqin qilinadi.

Pragmatik nuqtayi nazardan, mazkur evfemik birliklar o‘quvchilarda salomatlik va ekologik madaniyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bir tomondan, *blauer Dunst* sigaret tutunining zararli ta’sirini yumshatilgan shaklda ifodalasa, ikkinchi tomondan, *grüne Lungen* yashil hududlarning ekologik va ijtimoiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Natijada maqola orqali jamoatchilik sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, chekishning salbiy oqibatlarini anglash hamda yashil hududlarni asrab-avaylashga da’vat etiladi.

“Wirklich verstanden habe sie aber nicht, dass ihr Vater sich damals fast einen sogenannten goldenen Schuss gesetzt hatte und im Krankenhaus wiederbelebt werden musste. “Ich wusste nicht, was ein goldener Schuss ist”, sagte die 19-Jährige [7]*”.*

Yuqoridagi maqolada qo‘llangan *goldener Schuss* (oltin ukol yoki oltin zarba) birikmasi nemis tilida narkotik moddani haddan tashqari ko‘p miqdorda qabul qilish natijasida yuzaga keladigan o‘limga olib keluvchi dozani ifodalash uchun ishlatiladi. Mazkur birlik bevosita giyohvandlik, dozani oshirib yuborish yoki o‘lim kabi salbiy tushunchalarni tilga olish o‘rniga, ularni obrazli va bilvosita shaklda ifodalashga xizmat qiladi. Shu sababli *goldener Schuss* leksemasi tibbiy va ijtimoiy diskursda evfemik xususiyat kasb etadi.

Keltirilgan misolda ushbu birlik yosh qizning otasi bilan bog‘liq voqeani tasvirlash jarayonida qo‘llangan. Bunda giyohvandlikning og‘ir oqibatlari va inson hayotiga tahdidi bevosita emas, balki evfemik nominatsiya orqali ifodalanadi. Natijada matnning kommunikativ ta’siri saqlab qolinadi, biroq salbiy mazmunning keskinligi ma’lum darajada yumshatiladi. Shu bilan birga, mazkur birlik o‘quvchini giyohvandlikning xavfli oqibatlari haqida o‘ylashga undaydi va uning ijtimoiy zararini bilvosita namoyon etadi.

Tahlil qilingan materiallar shuni ko‘rsatadiki, evfemizmlar media diskursda muhim kommunikativ va pragmatik vazifalarni bajaradi. Xususan, tibbiyot va ijtimoiy muammolar bilan bog‘liq mavzularni yoritishda ular salbiy mazmunli hodisalarni nisbatan neytralroq shaklda ifodalash imkonini beradi. Natijada murakkab va nozik masalalar jamoatchilikka maqbul tarzda yetkaziladi hamda axborotning emotsional ta’siri muvozanatlashtiriladi. Shu jihatdan evfemizmlar media diskursda nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-kommunikativ ahamiyatga ham ega bo‘lgan vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Behinderte Menschen müssen bei Triage geschützt werden, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 28.12.2021.
2. Kornelius S. Europa hat die Wahl, Süddeutsche Zeitung, www.sueddeutsche.de, 19.09.2019.
3. Achtung: “Corona-Reiseschutz” ist keine Rundum-Absicherung, Süddeutsche Zeitung, www.sueddeutsche.de, 03.05.2021.

4. Wagner K. Corona-Pandemie in Russland, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 26.10.2021
5. Bundestag verschärft Regeln für Kaffeefahrten, Frankfurter Allgemeine Zeitung, www.faz.net, 11.06.2021.
6. Simons S. Paris verhängt Rauchverbot in städtischen Parks, der Spiegel, www.spiegel.de, 17.07.2018.
7. Tochter Lilith über Ben Becker, „Ich wusste nicht, was ein goldener Schuss ist“, der Spiegel, www.spiegel.de, 17.07.2019.